
SAYYOR QABUL: MUROJAATLAR NAZORATGA OLINMOQDA

Bugun, 26 iyul kuni Oltiariq tumani hokimining o'rinbosari A.Islomov tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oltiariq tumanidagi Xalq qabulxonasida sayyor qabul o'tkazildi.



Sayyor qabulda tumandagi tashkilotlar rahbarlari hamda o'nlab murojaatchi fuqarolar ishtirok etdi.

Unda aksariyat murojaatlar ichki yo'llarni tartibga keltirish, elektr energiyasi, gaz va ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash, moddiy yordam berish, uy-joyini ta'mirlashga yordam berish bo'yicha bo'ldi.

Barcha fuqarolarning murojaatlari atroflicha o'rganib chiqildi va aksariyatiga huquqiy tushuntirishlar berildi. Shuningdek, ijrosi vaqt talab etgan muammolar yuzasidan mutasaddilarga aniq vazifalar belgilanib, ijrosi yuzasidan muddat belgilandi va qat'iy nazoratga olindi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#)

2022-07-26 14:16:45